


# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


(Davlat xizmatlari markazlari ma‘lumotlar bazasi  
asosida shakllantirildi)



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil  
1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

3




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 1 340 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 149 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 271 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 183 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56 taga yoki 76,6 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 23 572 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 944 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 467 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 384 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 551 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 136 taga yoki 94,9 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 308 tani tashkil etib, ulardan 300 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 23 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga yoki 1,1 martaga oshgan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	65	59	6
Qozog'iston Respublikasi	15	14	1
Xitoy Xalq Respublikasi	52	43	9
Qirg'iz Respublikasi	9	9	
Tojikiston Respublikasi	15	15	
Turkiya Respublikasi	44	31	13
Hindiston Respublikasi	13	12	1
Janubiy Koreya Respublikasi	31	30	1
Singapur Respublikasi	4	3	1
Eron Islom Respublikasi	4	4	



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	300	179	121
Namangan shahri	98	52	46
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	31	22	9
Namangan	21	18	3
Norin	12	7	5
Pop	27	16	11
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	17	13	4
Uchqo'rg'on	11	6	5
Chortoq	26	14	12
Chust	23	13	10
Yangiqo'rg'on	13	8	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 98 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 32,7 %), Kosonsoy 31 ta (10,3 %), Pop 27 ta (9,0 %), Chortoq 26 ta (8,7 %), Chust 23 ta (7,7 %), Namangan 21 ta (7,0 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri 33,0 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,7 %), Uychi (6,6 %), Pop, Uchqo'rg'on (6,3 %dan), To'raqo'rg'on, Kosonsoy (6,2 %dan), Chortoq (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)


2022-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (33,8 %), Uchqo'rg'on (8,6 %), Chust (8,1 %), Chortoq (7,5 %), Norin (6,8 %), Yangiqo'rg'on (6,4 %), Uychi (6,3 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Kosonsoy (5,7 %), Namangan (5,3 %), Pop (4,5 %) hamda Mingbuloq (2,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

12




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,2 %), Uychi (7,0 %), Chortoq (6,9 %), Pop (6,5 %), Kosonsoy (6,3 %), Namangan (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,8 %), Chust (5,7 %), Norin (5,5 %), Yangiqo'rg'on (5,4 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan shahri (39,9 %), Yangiqo'rg'on (14,7 %), To'raqo'rg'on (14,7 %), Chortoq (7,7 %), Namangan (5,5 %), Chust, Norin (3,3 %dan), Mingbuloq (2,7 %), Kosonsoy, Pop, Uychi (2,2 %dan), Uchqo'rg'on (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.